



**Rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo‘yiladigan**

## **MALAKA TALABLARI**

### **I. Umumiy talablar**

Qayta tayyorlash va malaka oshirish sifati tinglovchilar tayyorgarligining zarur va yetarli darajasi, tinglovchilar bilimlari, ko‘nikma va malakalarining rahbar kadrlarga qo‘yiladigan malaka talablariga muvofiqligi bilan belgilanadi.

Rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan malaka talablari tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha o‘quv rejalari va dasturlarini shakllantirish, shuningdek, o‘quv jarayonini, ta’lim sifati nazorat qilish tartibini hamda boshqa hujjatlarni ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

### **II. Oliy ta’lim muassasalari rahbar kadrlarining tayyorgarligi va kompetentligiga qo‘yiladigan umumiy talablar**

**Oliy ta’lim muassasalarining rahbar kadrlari quyidagi yo‘nalishlarda bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim:**

- yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lish;
- mustaqillik g‘oyalari asosida ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish tamoyillarini bilish;
- Vatanga sadoqat va vatanparvarlik tuyg‘ulariga ega bo‘lish;
- mas’uliyat, intizom, tashabbuskorlik, qat’iyatlilik va ijtimoiy faollik sifatlariga ega bo‘lish;
- jamoada mehnatga nisbatan ishtiyoqni va sog‘lom muhitni shakllantirish;
- vaziyatga to‘g‘ri baho berish va siyosiy xushyor bo‘lish;
- rahbarlikning ish uslublarini bilish va amaliyotda qo‘llash;
- boshqaruv faoliyatining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish;

- rahbar kadrlarning kreativ salohiyatini baholash mezonlarini bilish;
- xodimlar bilan munosabatlarni samarali tashkil etish va guruhni optimal boshqarish;
- mehnat qonunchiligi va uning huquqiy asoslarini bilish;
- oliy ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va ular asosida ish yuritishni tashkil qilish;
- muntazam ravishda boshqaruv malakasini oshirishga, yangi bilimlarni egallashga tayyor bo'lish;
- muzokaralar olib borishda yuksak nutq madaniyatiga ega bo'lish;
- turli xil vaziyatlarni ob'ektiv baholash, optimal qarorlar qabul qilish va ijro natijalarini nazorat qilish;
- oliy ta'lim muassasasining ichki imkoniyatlarini tahlil qilish, yashirin zahiralarini aniqlash, muammolarni topish va ularni samarali yechish;
- innovatsiyalarni amaliyotga muvaffaqiyatli joriy qilish hamda oliy ta'lim muassasasining innovatsion faoliyatini tahlil qilish va baholash;
- oliy ta'lim muassasasi faoliyatiga ta'sir qiluvchi tashqi sharoitlarni oldindan bilish va baholay olish;
- boshqaruv faoliyati asoslari va tadbirkorlik xususiyatlarini bilish;
- jamoani boshqarishga nisbatan psixologik tayyorgarlikka ega bo'lish;
- ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish va fikrlarini yozma hamda og'zaki ravishda ifoda qilib berish;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amalda qo'llay bilish;
- chet tillardan birortasida so'zlashuv nutqi malakasiga ega bo'lish.

**Oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlari quyidagi yo'nalishlarda kompetentlikka ega bo'lishi lozim:**

**Huquqiy kompetentlik** - ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini, qonunchilik normalarini bilish hamda boshqaruv faoliyatida samarali foydalana olish, lokal normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, qonunchilik normalari doirasida qarorlar qabul qilish.

**Boshqaruv kompetentligi** - boshqaruv faoliyatidagi real vaziyatlarda uchraydigan boshqaruv muammo va vazifalarning samarali yechimini ta'minlaydigan metodik usullar, zamonaviy boshqaruv texnologiyalari, pedagogik-psixologik diagnostika (so'rov, individual va guruhviy intervyu) texnologiyalari, samarali boshqaruv muloqotini tashkil eta bilish va doimiy takomillashtirib borish, jamoada sog'lom psixologik muhitni yaratish, boshqaruv vaziyatlariga mos holda samarali uslublarni qo'llay olish, muzokaralar olib borishning pedagogik-

psixologik jihatlaridan foydalana olish, vaqt menejmenti, kichik guruhlar va liderlar bilan munosabatni shakllantirish, boshqaruvda nazoratni takomillashtirish.

**Axborot kompetentligi** – rahbarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida shaxsiy va boshqaruv faoliyati bilan bog‘liq ma‘lumot, axborotlarni izlash, tahlil qilish, baholash va zaruriy axborotlarni sohaga yo‘naltirish, mustaqil ijodiy ishlarni tashkil etish, boshqaruv faoliyatini doimiy rivojlantirish.

**Kommunikativ kompetentlik** – ta‘limni boshqarish jarayonida samarali muloqotni ta‘minlash, turli xil kichik guruhlarining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, ularni boshqarish, gorizontal va vertikal kommunikatsiya yo‘nalishlarida samarali boshqaruv muloqotini tashkil etish, xorijiy hamkorlar bilan muloqotning etiketlarini saqlash, tolerantlik, muomalada yuksak nutq madaniyatiga ega bo‘lish, jamoada ijobiy rahbar imidjini shakllantirish, yozma fikrlarni muloqot jarayonida yetkaza olish, og‘zaki fikrlarni yozma to‘g‘ri bayon qilish, jamoa oldida chiqish qilish odobini o‘zlashtirish, samarali muzokaralar olib borish.

### **III. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi o‘quv rejasining tasdiqlangan Namunali tarkibidan kelib chiqib oliy ta‘lim muassasalari rahbar kadrlariga qo‘yiladigan malaka talablari**

#### **1. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma‘naviy asoslari**

##### **Oliy ta‘lim muassasalari rahbar kadrlari:**

- Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma‘naviy asoslariga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar va ularga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni;
- Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi oid normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy usul va vositalarini;
- Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni ijro etish jarayonida amalga oshirilayotgan islohot va yangiliklarni, bu to‘g‘risidagi muhim ma‘lumotlarni;
- 2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining davlat va jamiyat hayotini takomillashtirishdagi o‘rni va ahamiyatini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma‘muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini;
- Davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslarini **bilishi** kerak.

- 2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy yo'nalish va maqsadlarini tahlil etish va baholash;
- Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasining mazmun-mohiyatini tushuntirib berish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirishni hisobga olinganligiga e'tibor qaratish;
- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish sohasidagi muammo va masalalarni tahlil etish;
- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga taalluqli bo'lgan tadqiqotlarni aniqlash va tahlil qilish;
- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash;
- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi bilan bog'liq tegishli amaliyot materiallarini o'rganish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlar asosida tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari mazmunini sharhlash va amaliyotda qo'llash;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini tahlil etish;
- jamiyatning iqtisodiy negizlarini sharhlash **ko'nikma va malakalariga** ega bo'lishi lozim.
- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslarini mazmun-mohiyatini yoritib berish;
- Davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslarini mazmun va mohiyatini to'g'ri idrok etish;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplarini amaliyotga tatbiq etishga o'rgatish;
- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, shuningdek ta'limning boshqa ustuvor sohalari bo'yicha talabalarni fundamental, shuningdek amaliy kasbiy tayyorgarligini ta'minlash;
- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi o'quv jarayoniga ilmiy ishlanmalar natijalarini samarali joriy etish, fanni samarali o'qitishga qaratilgan turli metod va usullarini qo'llash **kompetensiyalarga** ega bo'lishi lozim.

## **2. Oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari**

### **Oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlari:**

- oliy ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifini;
- normativ-huquqiy xujjatlarning turlarini;
- normativ huquqiy xujjatlarga qo'yiladigan talablarni;
- ta'lim to'g'risidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni;
- oliy ta'lim sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlarini;
- Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlarini;
- o'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;

- OTMlarning lokal xujjatlari (Ustav, Ichki tartib qoidalar)ni;
- meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tizimiga oid farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta'lim tizimiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlari mazmunini;
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;
- Davlat ta'lim standarti, ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalari, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablarni, o'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini **bilishi** kerak.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tizimiga oid qabul qilingan farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta'lim tizimiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkillashtirish;
- Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish;
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari ijrosini ta'minlash;
- Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
- o'quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini amaliyotga tadbiq etish **ko'nikma va malakalariga** ega bo'lishi lozim.
- O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini mazmun-mohiyatini ochib berish;
- Malaka talablari, o'quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablarni o'zlashtirish;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tizimiga oid farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta'lim tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta'lim standarti, Malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

### **3. Oliy ta'lim tizimida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish hamda ularni bartaraf etish usullari**

#### **Oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlari:**

- oliy ta'lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillarini;
- oliy ta'lim tizimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganlik holatlarining ko'rishini;
- manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sohalar, ularni oldini olish va bartaraf etish uchun qo'llanilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyatini;
- fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta'minlash (nomzodlarni tekshirish tartibi), ushbu sohada qo'llanilishi lozim bo'lgan xorij tajribasini;
- korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyatini;
- korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro'yxatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibini *bilishi* kerak.
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash;
- oliy ta'lim tizimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganlik holatlarining ko'rinishi, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sohalar, ularni oldini olish va bartaraf etish uchun qo'llanilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyatini yoritib berish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribalardan samarali foydalanish *ko'nikma va malakalariga* ega bo'lishi lozim.
- oliy ta'lim tizimida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish hamda ularni bartaraf etish usullarini amaliyotga tadbiq etish;
- korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro'yxatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora -tadbirlarini amalga oshirish;
- oliy ta'lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni yuzaga kelish sabablarini aniqlash, tahlil etish va choralar ko'rish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

### **4. Ta'lim menejerining innovatsion faoliyati, kompetentligi, professionalligi**

#### **Oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlari:**

- ta'lim menejeri innovatsion faoliyatining funksiyalari, bosqichlari, shakllarini;
- innovatsion kompetentlik va uning o'ziga xos xususiyatlarini;
- ta'lim menejerining innovatsion faoliyatida kasbiy professionallik va uning tarkibiy qismlari, professionallikka erishish darajalari, ko'rsatkichlari, texnikasini;

- ta'lim menejerining kasbiy professionalligi mazmuni va uni innovatsion faoliyatda (boshqaruvda, ishlarni NOT prinsiplari asosida tashkillashtirishda, xodimlar bilan ishlashda, shaxs va jamoaga ta'sir etishda) namoyon bo'lishini;
- innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash mazmuni, shakl va usullarini *bilishi* kerak.
- zamonaviy ta'lim menejerining innovatsion kompetentligi mazmuni va mohiyati, shakllanish bosqichlari, shakllarini ochib berish;
- ta'lim menejerining innovatsion faoliyatida kasbiy professionallik va uning tarkibiy qismlari, professionallikka erishish darajalari, ko'rsatkichlarini tahlil etish hamda texnikasini qo'llash;
- ta'lim menejerining kasbiy professionalligi mazmuni va uni innovatsion faoliyatda (boshqaruvda, ishlarni NOT prinsiplari asosida tashkillashtirishda, xodimlar bilan ishlashda, shaxs va jamoaga ta'sir etishda) namoyon bo'lishini tahlil etish va baholash;
- ta'lim menejerining professional boshqaruv mahorati, texnikasi, uslublaridan foydalanish;
- ta'lim menejerining innovatsion faoliyatida akterlik va rejisserlik elementlaridan foydalanish, ijodkorlik, novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash *ko'nikma va malakalariga* ega bo'lishi lozim.
- innovatsion kompetentlik va uning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish va baholash;
- ta'lim jarayonini innovatsion tashkil etish va boshqarishda xalqaro tajribalardan foydalanish;
- ta'lim menejerining professionalligida talant, tajriba va javobgarlik birligi, diqqatini jalb etish usullarini egallash *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

## 5. Oliy ta'limni boshqarishda raqamli texnologiyalar

### Oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlari:

- goballashuv jarayonida inson resurslarini boshqarishda raqamli transformasiyani;
- boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha loyihalarni yaratish va boshqarish (BPR) ni;
- oliy ta'lim boshqaruvida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni (Machine learning, IoT, Cloud Computing va boshqa texnologiyalar)ni;
- goballashuv jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlash usullari (ERI, kriptografiya va kriptotahlil)ni;
- oliy ta'lim boshqaruvida rahbarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish etikasi (LinkedIn, Facebook, Twitter, Telegram va boshqalar)ni *bilishi* kerak.
- Davlat boshqaruv tizimida interaktiv xizmatlar va Oliy ta'lim tizimida ularning roli (Smart City, Smart Work Center, Smart Services)ni ochib berish;
- goballashuv jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlash usullari (ERI, kriptografiya va kriptotahlil)dan foydalanish;

- ma'lumotlar asosida taqdimot va infografik materiallar tayyorlash **ko'nikma va malakalariga** ega bo'lishi lozim.
- oliy ta'lim boshqaruvida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni (Machine learning, IoT, Cloud Computing va boshqa texnologiyalar)ni amaliy ahamiyatini yoritib berish;
- boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha loyihalarni yaratish va boshqarish;
- oliy ta'lim boshqaruvida rahbarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish etikasi asoslarini o'zlashtirish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

## 6. Oliy ta'lim boshqaruvida tizimli tahlil

### Oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlari:

- oliy ta'limni boshqarishga tizimli tahlil asoslarini;
- tizim darajalari va ierarxialari nazariyasini;
- oliy ta'limni boshqarishda tizimli yondashuv asoslari: tizim tushunchasi, uning elementlari va xossalarini;
- oliy ta'lim muassasalaridagi o'zgarishlarni boshqarish jarayonida tizimli tahlilni;
- tizimli tahlilining usullari va vositalarini;
- Pareto, ABC, Ierarxik tahlil usullarini;
- O'zaro ta'sirni tahlil qilish, Funktsional, Maqsadlar daraxti tahlil usullarini;
- Kritik zanjir, Morfologik, SWOT, FMEA tahlil usullarini **bilishi** kerak.
- tizim darajalari va ierarxialari nazariyasini o'zlashtirish;
- universitetda vertikal va gorizontaal boshqaruv tuzilmasini tahlil qilish;
- oliy ta'limni boshqarishda tizimli tahlil va tizimli yondashuvdan foydalanish;
- oliy ta'lim muassasalaridagi o'zgarishlarni boshqarish jarayonida tizimli tahlilni qo'llash;
- boshqaruv modellarini o'zgartirish **ko'nikma va malakalariga** ega bo'lishi lozim.
- o'zgarishlarni amalga oshirishda xavflarni boshqarish;
- tizimli tahlil usullari va vositalarini amaliyotga tadbiq etish;
- ssenariy modellashtirish va o'zgarishlarni prognozlash;
- tizim darajalari va ierarxialari nazariyasi asoslarini yoritib berish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

## 1.7. Oliy ta'lim tizimida strategik qarorlar qabul qilish va forsait

### Oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlari:

- oliy ta'lim tizimida strategik qarorlar qabul qilish va forsaitning mazmunini;
- oliy ta'limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari, vazifalari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi vaziflarni amalga



- o'shiriga doir qarorlar qabul qilishda rahbar kompetentligini;
- oliy ta'lim muassasasining istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash usullari va texnologiyalarini;
  - strategik qarorlarni amalga oshirish jarayoni bosqichlarini;
  - oliy ta'limda boshqaruv qarorlari samaradorligi tushunchasi, samaradorlik turlarini;
  - strategik rejalashtirishda forsayt texnologiyalaridan foydalanishni joriy etish uchun zaruriy institutlarni;
  - forsayt texnologiyalarining tashkiliy-institutsional asoslarini;
  - boshqaruv qarori samaradorligini oshirish buyicha xorijiy mamlakatlar tajribasi (forsayt texnologiyalari);
  - boshqaruv qarorlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni **bilishi** kerak.
  - oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirishda forsayt texnologiyalaridan foydalanish;
  - oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash;
  - oliy ta'lim tizimida strategik rejalashtirishda forsayt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish;
  - ta'lim jarayonini strategik tahlil qilish va rejalashtirishda forsayt texnologiyalarini qo'llash;
  - oliy ta'limda strategik qarorlar ijrosini ta'minlash va uning nazoratini amalga oshirish;
  - strategik qarorlar ijrosi nazorat qilish;
  - oliy ta'limda qarorlar ijrosini ta'minlashning zamonaviy usullarini qo'llash **ko'nikma va malakalariga** ega bo'lishi lozim.
  - oliy ta'lim tizimida strategik qarorlar samaradorligini baholash usullaridan foydalanish;
  - boshqaruv qarorlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish va baholash;
  - boshqaruv qarori samaradorligini oshirish buyicha xorijiy mamlakatlar tajribasini amaliyotda qo'llash;
  - oliy ta'limda strategik qarorlar ijrosini ta'minlash va uning nazoratini amalga oshirish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

### **1.8. Ta'lim muassasalari faoliyatini akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi va reyting baholash me'zonlari**

#### **Oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlari:**

- ta'lim tashkilotlar kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasini;
- kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasiga oid va ta'lim jarayonini tartibga soluvchi normativ hujjatlarni;
- ta'lim tashkilotlar kompleks va maxsus akkreditatsiya qilishda ekspertlarga qo'yiladigan talablarni;

- kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish axborot tizimini;
- ekspertlarning vazifalari va ularga qo'yiladigan talablarni;
- ekspertlarni tanlash, o'qitish va sertifikatlash tizimini;
- xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari tomonidan ta'lim dasturlarini akkreditatsiyani;
- respublika ta'lim tashkilotlarining milliy reyting baholash tizimini;
- ta'lim tashkilotlari faoliyati reyting ko'rsatkichlari va ular bilan ishlash metodologiyasi, xalqaro reytinglarda munosib o'rin egallash choralarini **bilishi** kerak.
- zarur ma'lumotlarni olish, o'rganish, tahlil qilish va ichki baholash hisobotni tayyorlash;
- ta'lim tashkilotlar kompleks va maxsus akkreditatsiya qilishda ekspertlarga qo'yiladigan talablarni o'zlashtirish;
- ekspertlarni tanlash, o'qitish va sertifikatlash;
- O'zbekiston Respublikasi hududida tan olinadigan xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari va ularga qo'yilgan talablarni tahlil etish va baholash;
- xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari tomonidan ta'lim dasturlarini akkreditatsiya qilish **ko'nikma va malakalariga** ega bo'lishi lozim.
- ta'lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o'tkazish jarayonida ta'lim tashkilotlari to'g'risida tahliliy ma'lumotlarni to'plash, jarayondagi byurokratik to'siqlarni olib tashlash, korrupsiyani oldini olish, mutaxassislarning vaqti va yo'l xarajatlarini tejash hamda tezkor axborot almashish imkoniyatlaridan samarali foydalanish;
- respublika ta'lim tashkilotlarining milliy reyting baholash tizimini yuritish;
- ta'lim tashkilotlari faoliyati reyting ko'rsatkichlari va ular bilan ishlash metodologiyasini o'zlashtirish hamda xalqaro reytinglarda munosib o'rin egallash choralarini amalga oshirish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

### **1.9. Maxsus fanlar**

#### **Oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlari:**

- innovatsion ekotizm va uning mazmun-mohiyatini;
- tadbirkorlik universiteti modeli, umumiy tavsiflarini;
- SPIN-OFF shaklidagi akademik tadbirkorlikning ustuvorliklarini;
- 21-asrda ta'lim menejerning kompetensiyalari: umumiy, kasbiy va shahsiy kompetensiyalarni;
- ta'lim menejerning 4K-kompetensiyalari: kommunikativ, kollaborativ, kretiv va kritik fikrlash kompetensiyalarining mazmun-mohiyatini;
- oliy ta'lim muassasalarini strategik rivojlantirishning mazmuni va mohiyatini;
- oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishda strategik rejalashtirishni;
- oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni tashkil etishning asosiy xususiyatlarini o'rganish asosida tizimli menejmentini rivojlantirish

strategiyasini;

- innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning ustuvor yo'nalishlarini;
  - 21-asrda ta'lim menejning kompetensiyalari: umumiy, kasbiy va shahsiy kompetensiyalarni;
  - ta'lim menejning 4K-kompetensiyalari: kommunikativ, kollaborativ, kretiv va kritik fikrlash kompetensiyalarining mazmun-mohiyatini;
  - oliy ta'lim muassasalarini strategik rivojlantirishning mazmuni va mohiyatini;
  - oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishda strategik rejalashtirishni;
  - oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni tashkil etishning asosiy xususiyatlarini o'rganish asosida tizimli menejmentini rivojlantirish strategiyasini;
  - innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning ustuvor yo'nalishlarini;
  - zamonaviy ta'limning global trendlarini;
  - "Amaliyotchi professorlar" (PoP, Professor of Practice) modelini;
  - universitetlarning xalqaro reytinglari, xalqaro ta'lim reytinglari, OTMlar raqobatbardoshligining muhim ko'rsatkichlari va ta'lim tizimi rivojlanishi darajasi indikatoriligini;
  - ta'lim sifatini ta'minlashda xalqaro tajribalarni;
  - rivojlangan xorijiy davlatlarda oliy ta'lim sifatini boshqarish tizimlarini;
  - xalqaro talim tizimida sifatni baholash modellari va ularni qo'llash usullarini;
  - ta'lim sifatini boshqarishning zamonaviy tashkiliy tuzilmalarini;
  - ta'lim sifati indikatorlarini;
  - oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini aloqalarini mustahkamlash hamda klaster usulida faoliyat yuritishini;
  - oliy ta'lim muassasalari huzurida texnoparklar, biznes inkubatorlar, kovorking markazlari faoliyatini;
  - zamonaviy ta'lim jarayonini bosqichlari va bugungi kundagi zamonaviy tendensiyalarini;
  - oliy ta'limda erishilgan yutuqlarni tahlil etish va sifatni ta'minlashning samarali metodlarini;
  - sifat menejmenti tizimida pedagoglar faoliyatini hamda o'quv jarayonining uslubiy ta'minotini **bilishi** kerak.
- 
- tadbirkorlik universitetlarida innovatsion ekotizimni shakllantirish va rivojlantirish;
  - tadbirkorlik universitetiga o'tish uchun zarur bo'ladigan o'zgarishlarni tahlil etish;
  - SPIN-OFF shaklidagi akademik tadbirkorlikning ustuvorliklarini amaliyotga tadbiq etish;
  - ta'lim menejerining 4K-kompetensiyalarini rivojlantirish va baholash usul va vositalarini qo'llash;
  - ta'lim menejerida 21-asr kompetensiyalarni baholash modellaridan foydalanish;

- ta'lim menejerida 4K-kompetensiyalarini rivojlantirishning xalqaro tajribalarini qo'llash;
- oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishda strategik rejalashtirish va uni ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlarini tahlil etish;
- oliy ta'limda innovatsion faoliyatni faoligini oshirishda yangi ilmiy ishlanmalarni yaratishni tahlil etish va ahamiyatini ochib berish;
- oliy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etishda rivojlangan mamlakatlar tajribasini qo'llash;
- professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini va ilmiy-pedagog kadrlarning tadbirkor-olim faoliyatini rivojlantirish istiqbolidagi bosqichlarini ochib berish;
- "Amaliyotchi professorlar" (PoP, Professor of Practice) modelini qo'llash;
- mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh etishda xorijiy davlatlar tajribasini qo'llash;
- oliy ta'lim sifatini baholashning xalqaro metodlarini qo'llash;
- loyihalarning muhim komponentlarini o'zlashtirish;
- oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlashda innovatsion faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish;
- ilmiy tadqiqotlar olib borish, ularning natijalarini tijoratlashirishda kadrlar buyurtmachilari, ilmiy-tadqiqot muassasalari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- oliy ta'lim tizimida sifatni boshqarish mohiyati va uning o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqib ta'lim jarayonlarini tashkil etish;
- sifat menejmenti tizimida pedagoglar faoliyatini hamda o'quv jarayonining uslubiy ta'minotini tahlil qilish;
- rahbar kadrlarini kasbiy kompetentligini shakllantirish asosida ta'limga bo'lgan yondashuvni o'zgartirish hamda ularda ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini ortishi evaziga samarali boshqarish;
- oliy ta'lim tizimida sifatni boshqarish mohiyati va uning o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqib ta'lim jarayonlarini tashkil etish **ko'nikma va malakalariga** ega bo'lishi lozim.
- xalqaro reytinglar tahlili bo'yicha OTMLar raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini tahlil etish va baholash;
- zamonaviy universitetlar modellari va funksiyalari, raqamli iqtisodiyotning oliy ta'limga bo'lgan talablarini o'zlashtirish va amaliyotga joriy etish;
- klassik ta'limni tadbirkorlikka transformatsiyalash va bu borada milliy modelni shakllantirish istiqbollari ochib berish;
- "20-qirra" modelining xususiyatlarini tahlil etish va baholash;
- boshqaruv kadrlarda 4K-kompetensiyalarini rivojlantirish ahamiyatini inobatga olish;
- oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;
- Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv hamda moliyaviy mustaqilligini ta'minlash;

- oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni tashkil etishning asosiy xususiyatlarini o'rganish asosida tizimli menejmentini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish;
- radbirkorlik universiteti modelini qo'llash;
- universitet muhitida texnologiyalarni tijoratlashtirish;
- biznes-inkubatorlarning amaliy ahamiyatini ochib berish;
- ta'lim tizimini tashkil etish va sifatini oshirishda halqaro standartlarning ahamiyatini ochib berish;
- ta'lim sifatini o'lchash muammolarini bartaraf etish;
- ilmiy tadqiqotlar olib borish, ularning natijalarini tijoratlashtirishda kadrlar buyurtmachilari, ilmiy-tadqiqot muassasalari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish, biznes inkubatorlar va venchur moliyalashtirish faoliyatini rivojlantirish;
- zamonaviy ta'lim jarayonini bosqichlarini ochib berish va bugungi kundagi zamonaviy tendensiyalarni amaliyotga tadbiq etish;
- rahbar kadrlarini kasbiy kompetentligini shakllantirish asosida ta'limga bo'lgan yondashuvni o'zgartirish hamda ularda ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini ortishi evaziga samarali boshqarish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

#### IV. Yakuniy qoida

Mazkur malaka talablari ijtimoiy-iqtisodiy sohaning ustuvor yo'nalishlari va vazifalaridan kelib chiqib takomillashtirib boriladi.

**Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi direktori**



**T.T.Shoymardonov**